Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 336

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

BANK XIZMATLARIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: IQTISODIY SAMARADORLIK, MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Gulmiraxon Shavkatjon qizi To‘lqinova*

Farg‘ona davlat texnika universiteti Magistrant, Raqamli iqtisodiyot yo‘nalishi

✉ tolqinovagulmira69@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda raqamli transformatsiya sharoitida bank xizmatlariga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy ahamiyati, samaradorlikka ta’siri va mavjud muammolari tadqiq etilgan. Xususan, sun’iy intellekt yordamida bank operatsiyalarini avtomatlashtirish, kredit risklarini baholash, mijozlarga xizmat ko‘rsatish hamda moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash imkoniyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning TBC Bank Uzbekistan faoliyati misolida sun’iy intellekt texnologiyalarining amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinib, bank tizimida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar

: raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, bank xizmatlari, iqtisodiy samaradorlik, avtomatlashtirish, moliyaviy texnologiyalar, kredit riski.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli transformatsiya jahon iqtisodiyotining rivojlanishida muhim omillardan biriga aylanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi iqtisodiyot tarmoqlarida boshqaruv, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur jarayonda sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, mavjud holatlarni tahlil qilish, muayyan jarayonlarni avtomatlashtirish va ehtimoliy xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Natijada bank faoliyatida inson omiliga bog‘liq ayrim xatolar kamayadi, xizmat ko‘rsatish tezligi ortadi va operatsion xarajatlarni optimallashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Shu nuqtayi nazardan, bank xizmatlarida sun’iy intellektdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini o‘rganish hamda O‘zbekiston bank tizimida uning rivojlanish istiqbollarini aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi – bank xizmatlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro hisob-kitoblar bankining 2024-yilda e’lon qilingan tadqiqotida sun’iy intellekt moliyaviy vositachilik, to‘lovlar, sug‘urta va aktivlarni boshqarish jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgani qayd etilgan [1].

Xalqaro hisob-kitoblar bankining moliyaviy sektorda sun’iy intellektni tartibga solishga bag‘ishlangan tadqiqotida esa ma’lumotlar maxfiyligi, algoritmik risklar, boshqaruv va inson nazoratini ta’minlash muhim masalalar sifatida ko‘rsatilgan [2].

Mazkur manbalar sun’iy intellektni bank faoliyatiga tatbiq etishda faqat texnologik imkoniyatlarni emas, balki uning natijadorligi va xavfsizligini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Amaliy jihatdan esa TBC Bank Uzbekistan hamda TBC Bank Group PLC tomonidan e’lon qilingan hisobotlar sun’iy intellekt texnologiyalarining bank faoliyatida qo‘llanilishini o‘rganish uchun asos bo‘ldi [3, 4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, tizimli tahlil, taqqoslash va amaliy holatni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Tahlil obyekti sifatida TBC Bank Uzbekistan faoliyatida sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi tanlandi.

Bank tizimida sun’iy intellektni joriy etish bir qator iqtisodiy imkoniyatlar bilan birga muammolarni ham yuzaga keltiradi. Jumladan, texnologiyalarni joriy etish uchun dastlabki investitsiya xarajatlarining yuqoriligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi, ma’lumotlar xavfsizligi va algoritmik xatolar shular jumlasidandir.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bank xizmatlarida sun’iy intellektning iqtisodiy ahamiyati. Sun’iy intellekt bank faoliyatining bir nechta yo‘nalishlarida samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega:

- birinchidan, kreditlash jarayonida mijozlarning moliyaviy holati, daromadlari va kredit tarixini tahlil qilish orqali kredit risklarini baholashga yordam beradi;
- ikkinchidan, bank operatsiyalarini avtomatlashtirish hisobiga takroriy vazifalarga sarflanadigan vaqt va mehnat xarajatlari qisqaradi;
- uchinchidan, sun’iy intellekt asosidagi virtual yordamchilar mijozlarga kechayu kunduz xizmat ko‘rsatish, murojaatlarga javob berish va bank mahsulotlari haqida ma’lumot taqdim etish imkonini yaratadi;
- to‘rtinchidan, shubhali moliyaviy operatsiyalarni aniqlash orqali firibgarlik xavfini kamaytirish va moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Biroq ushbu imkoniyatlardan olinadigan iqtisodiy samara texnologiyaning o‘ziga emas, balki uning bankning mavjud biznes jarayonlariga qay darajada samarali integratsiya qilinishiga ham bog‘liq.

TBC Bank Uzbekistan faoliyatining amaliy tahlili. O‘zbekistonda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha faoliyat olib borayotgan tashkilotlardan biri TBC Bank Uzbekistan hisoblanadi. Mazkur bankning raqamli xizmatlar ekotizimi mijozlarga masofadan turib moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda.

TBC Bank Uzbekistan tomonidan e’lon qilingan 2025-yil yakunlari bo‘yicha ma’lumotlarga ko‘ra, bank ekotizimining umumiy daromadi 3,17 trillion so‘mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 64 foizga oshgan. Sof foyda esa 581 milliard so‘mga yetgan [3]. Mazkur natijalar raqamli xizmatlar ekotizimining iqtisodiy ko‘lamini ko‘rsatadi. Bunda ushbu ko‘rsatkichlar faqat bankning alohida faoliyatiga emas, balki TBC ekotizimining boshqa xizmatlariga ham tegishli ekanligini hisobga olish lozim.

TBC Bank Uzbekistan faoliyatidagi muhim innovatsiyalardan biri sun’iy intellekt asosidagi ovozli agentlardan foydalanishdir. Bank 2024-yilda o‘zining Speech Tech texnologiyasini ishlab chiqib, kredit to‘lovlari haqida mijozlarga eslatma beruvchi ovozli agentlarni joriy qilgan. 2025-yil yanvar holatiga ko‘ra, ushbu agentlar kredit to‘lovlarining dastlabki kechikish bosqichidagi qo‘ng‘iroqlarning 40 foizdan ortig‘ini amalga oshirgan [4]. Bundan tashqari, bankning 2025-yil yakunlari bo‘yicha e’lon qilgan ma’lumotlarida savdo yo‘nalishidagi sun’iy intellekt boti orqali bir oyda 100 mingta mijoz murojaati amalga oshirilgani hamda mobil ilovada Lola nomli sun’iy intellekt yordamchisi sinovdan o‘tkazilgani qayd etilgan [3].

Ushbu tajriba iqtisodiy jihatdan bir nechta muhim natijalarni yuzaga keltiradi. Birinchidan, takroriy qo‘ng‘iroqlarni avtomatlashtirish xodimlarning mehnat yuklamasini kamaytiradi. Ikkinchidan, mijozlar bilan uzluksiz muloqot qilish xizmat ko‘rsatish jarayonini tezlashtiradi. Uchinchidan, raqamli yordamchilar orqali

ko‘proq mijozlarga bir vaqtning o‘zida xizmat ko‘rsatish imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, mazkur tajriba bank faoliyatida ma’lumotlar xavfsizligi, algoritmlarning aniqligi va mijozlar manfaatlarini himoya qilish masalalariga ham alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Muammolar va rivojlantirish bo‘yicha takliflar. TBC Bank Uzbekistan tajribasi va xalqaro ilmiy tadqiqotlar asosida O‘zbekiston bank tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- banklarda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishdan oldin ularning iqtisodiy samaradorligini baholash mexanizmini ishlab chiqish;
- o‘zbek tilida ishlaydigan intellektual bank yordamchilarini rivojlantirish va ularning xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish;
- kredit risklarini baholashda zamonaviy ma’lumotlarni tahlil qilish algoritmlaridan foydalanish hamda muhim qarorlarda inson nazoratini saqlab qolish;
- mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va sun’iy intellekt tizimlarining xavfsizligini ta’minlash;
- bank xodimlarining raqamli kompetensiyalarini oshirish va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Mualliflik yondashuviga ko‘ra, banklarda sun’iy intellektdan foydalanish samaradorligini baholash uchun kompleks iqtisodiy monitoring tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda avtomatlashtirilgan operatsiyalar ulushi, bitta mijozga xizmat ko‘rsatish xarajati, xizmat ko‘rsatish vaqti, kreditlarning qaytarilish darajasi hamda mijozlar qoniqishi asosiy baholash ko‘rsatkichlari sifatida olinishi mumkin.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ularning yordamida operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish, kredit risklarini baholash, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash imkoniyatlari kengayadi. TBC Bank Uzbekistan tajribasi sun’iy intellekt texnologiyalarini bank faoliyatiga amaliy tatbiq etishning samarali yo‘nalishlari mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ovozli agentlar va virtual yordamchilardan foydalanish bank xizmatlarini avtomatlashtirishning istiqbolli mexanizmlaridan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston bank tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini bosqichma-bosqich iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida joriy etish raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga, banklarning raqobatdoshligi ortishiga hamda moliyaviy xizmatlar sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aldasoro I., Gambacorta L., Korinek A., Shreeti V., Stein M. Intelligent financial system: How AI is transforming finance. BIS Working Papers No. 1194. Bank for International Settlements, 2024.
2. Crisanto J.C., Leuterio C.B., Prenio J., Yong J. Regulating AI in the financial sector: Recent developments and main challenges. FSI Insights No. 63. Bank for International Settlements, 2024.
3. TBC Uzbekistan. 20% всех платежей в Узбекистане – результаты TBC Bank в 2025 году. 2026.
4. TBC Bank Group PLC. Annual Report and Accounts 2024. London, 2025.